

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MORFOLOGIK
TUSHUNCHALARNI TAKOMILLASHTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19797421>

Nusratova Hamida Cho'liboyevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori, Phd

Abdug'apponova Dinora Abduxalil qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarni o'qitilishini takomillashtirish masalalari, morfologiyaning o'rgatilish jarayonlari va uni o'qitishdagi ahamiyati shuningdek, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda morfologiyaga doir so'z turkumlari, so'zning grammatik shakllari va kategoriyalari o'rgatilishi yoritilgan. Bundan tashqari lingvistik va nutqiy kompetensiyalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida dastlabki morfologik tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, innovatsion metodlardan foydalanish, lingvistik va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *morfologiya, so'z turkumlari, grammatik ma'no, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, nutqiy va lingvistik kompetensiya.*

Annotation: *This article discusses issues of improving the teaching of morphological concepts in native language lessons in primary school, the processes of learning morphology and its importance in education. It also highlights the teaching of parts of speech, grammatical forms, and categories of words to primary school learners. In addition, effective ways of gradually forming initial morphological concepts in young learners through linguistic and communicative competencies are presented, including the use of innovative methods and the development of their linguistic and speech skills.*

Key words: *morphology, parts of speech, grammatical meaning, interactive methods, primary education, communicative and linguistic competence.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования преподавания морфологических понятий на уроках родного языка в начальных классах процессы изучения морфологии её значение в обучении. Также освещается формирование у учащихся начального образования знаний о частях речи, грамматических формах и категориях слова. Кроме того, показаны эффективные пути поэтапного формирования первоначальных морфологических представлений у младших школьников на основе лингвистических и речевых компетенции, использование инновационных методов, а также развитие их лингвистических и речевых навыков.*

Ключевые слова: *морфология части речи грамматическое значение интерактивные методы начальное образование речевая и лингвистическая компетенция.*

Har bir millatning o'zligini bildirib turadigan, milliy qadriyatlarini, an'analarini tanitadigan, ma'naviyatini, qolaversa, madaniyatini ham yuksaltiruvchi vosita bu ona tilidir. Shu o'rinda, davlat dasturiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmonida davlat tilini rivojlantirish, ona tili ta'limining sifatini oshirish, lingvistik bilimlarni chuqurlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa o'z navbatida, boshlang'ich sinf ona tili darslarida tilning asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan morfologiyani o'qitishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Morfologiya grekcha morphe – shakl, logos – ta'limot ya'ni so'z shakli haqida ta'limot demakdir. Morfologiyaning asosiy tarkibiy qismini grammatik ma'no tushunchasi tashkil etadi. Grammatik ma'no lug'aviy ma'nodan (so'zning atash ma'nosi) farqli ravishda obyektiv borliqni emas, balki tilimizda so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: "maktabimizning" so'zidagi –miz va –ning qo'shimchalari maktab so'zining mazmuniga hech qanday o'zgartirish kiritmaydi. Grammatik ma'noning vazifasi so'zga I shaxs ko'plik shaxsiga tegishlilik ma'nosini va qaratqich munosabatini berish vazifasini yuklash hisoblanadi. So'zlarning shunday grammatik ma'no ifodalovchi barcha shakllari majmui paradigmasini ya'ni so'zlarning shakllari tizimini hosil qiladi. Morfologiya aynan so'zlarning paradigmasini ya'ni otlarning kelishik va egalik bo'yicha turlanishini, fe'llarning shaxs-son, zamon va mayl kategoriyalari asosida tuslanishini belgilovchi grammatik shakllarni ham o'rganadi.

Ma'lumki, fan olamida qadimdan so'z va unga xos bo'lgan xususiyatlar insonlarni, ayniqsa, olimlarni qiziqtirib kelgan. Shu xususda dunyo tilshunosligida asosiylardan hisoblangan hind tilshunosligi so'zlarni turkumlarga bo'lish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini qat'iy shunday xulosaga kelingan, dastlab so'zlarni turkumlarga bo'lish hind tilshunosligida boshlangan bo'lib, ular ot, fe'l hamda yordamchi so'z turkumlariga bo'lib o'rganilgan. Hozirgi o'zbek tilshunosligida esa so'z turkumlari 3 guruhga bo'lib o'rganiladi, bular mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari va oraliqdagi so'zlarga bo'lib o'rgatiladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida morfologik tushunchalarni lingvistik kompetensiya orqali o'rgatish muhim o'rin tutadi. Lingvistik kompetensiyaning nimaligini bilish uchun aynan mohiyatini anglash uchun kompetensiya haqida tushunchaga ega bo'lish lozim. "Kompetensiya" bu shaxsdagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatga mos holda to'g'ri va samarali qo'llay olish qobiliyatidir.

Lingvistik kompetensiyada til tizimini bilish va undan ongli ravishda foydalana olish tushuniladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi boshlang'ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarni faqat qoidalarni yod oldirishga qaratilgan usullardan voz kechilib, uning o'rniga o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan innovatsion metodlarni qo'llashni taqozo etmoqda. Shu sababli ham morfologik

tushunchalarni o'qitishda nazariy bilimlarni amaliy nutq bilan bog'lash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Quyida "Sinkveyn" metodi misolida so'z turkumlari, ot, sifat va fe'l doirasida ko'rib chiqamiz. Bu metoddan ta'lim jarayoniga tadbiiq etish uchun dastlab o'quvchilarga "Sinkveyn" o'zi nimaligi, qayt tartibda foydalanilishi tushuntiriladi. "Sinkveyn" fransuzcha so'z bo'lib, "besh qator" degan ma'noni anglatadi, ya'ni "besh qatorli qofiyasiz she'r" demakdir. Mazkur metodda o'quvchilar faqat ot, sifat, va fe'lga oid biror so'z aytishadi, tasviriy ifoda va sinonimini ham keltirib o'tishadi ya'ni quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi:

I.Ot (1 ta so'z);
II.Sifat (2 ta so'z);
III.Fe'l (3 ta so'z);
IV.Ibora, tasviriy ifoda (gap bilan ta'rifi beriladi);
V.Sinonimi (1 ta so'z yoziladi 1-qatorda yozilgan so'z bilan ma'nosi bir xil bo'lsin).
I.Kitob;
II.Mazmunli, qiziqarli;
III.Bilim beradi, ma'naviy ozuqa beradi, dunyoqarashni kengaytiradi;
IV.Bilim bulog'i;
V.Ilm nuri.

Xuddi shu tartibda "Sinkveyn" metodidan dars jarayonida so'z turkumlarini o'rgatishda ham innovatsion mashq turi sifatida foydalanish mumkin. Bu esa o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda, so'z turkumlarini bir-biridan amaliy jihatdan farqlashga o'rgatadi hamda til va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari "Anogramma" mashqini boshlang'ich sinf ona tili darslarida aynan morfologik tushunchalarni o'rgatishda ham amaliy jihatdan juda samarali va sinalgan usullardan biri sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Ushbu metodda o'quvchilarga berilayotgan so'zlar faqat biror hodisa, mavzu asosida beriladi va ular orasida bittasi ortiqcha so'z bo'ladi, ya'ni shu hodisaga aloqador bo'lmaydi. O'quvchi esa ana shu ortiqcha so'zni aniqlay olishi va uni nima uchun ortiqcha ekanligini izohlay olishi lozim.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'lim tizimida so'z turkumlarini o'qitish bo'yicha mashqlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, morfologik tushunchalarni o'qitish jarayonida innovatsion usullardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni egallashdagi potensialini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'quv jarayonida quyidagi metodlar samarali natija beradi:

-Annogramma mashqi – so'z turkumlari va boshqa mavzudagi bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

-Sinkveyn metodi – so'z turkumlari doirasida tushunchalarini shakllantiradi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, og'zaki nutqini rivojlantiradi.

Tilshunoslik va ona tili o'qitish metodikasi sohasida ham morfologiya bilan bog'liq masalalar keng o'rganilgan. O'zbek tilshunos olimlari A.G'ulomov, N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek tili morfologik kategoriyalar va so'z turkumlariga oid masalalari" bo'yicha nazariy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim metodikasi sohasida R.Yo'ldosheva, M.Qurbonova, D.Xudayberganova kabi olimlar tomonidan ona tili darslarini tashkil etish, grammatik tushunchalarni shakllantirish bilan bog'liq masalalari yoritilgan. Biroq, mavjud tadqiqot ishlarida boshlang'ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarni rivojlantirishning tizimli modeli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullar asosida takomillashtirish masalalari yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Shuning uchun ham hozirgi davr tilshunosligida til birliklarining shakllanishi, o'quvchilarning nutqiy faoliyatida morfologiyaning o'rni muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida morfologik bilimlar sinflar kesimida so'z turkumlari doirasida belgilar asosida quyidagicha o'qitiladi:

Ot. 1-2-sinflarda o'quvchilar otning belgilarini, ya'ni qanday so'roqqa javob bo'lishini va nimani bildirishini o'rganadilar.

3-sinfda otga atama beriladi. Otning birlik va ko'plik shakllarini o'rganishadi.

4-sinfga kelib esa dasturga muvofiq otning egalik va kelishik qo'shimchalarini, ya'ni turlanishini o'rganadi.

Sifat. 1-2-sinflarda o'quvchilar sifatning leksik ma'nosini hamda sifatga qanday? qanaqa? so'roqlar berishni o'rganadi.

3-sinfda sifat turkum ekanligi haqida tushunchalar beriladi.

4-sinfda grammatik materiallar bilan bog'lagan holda ortirma darajadagi masalan, ko'm-ko'k, qop-qora shaklidagi ko'rinishini va ishlatilishini o'rganadi.

Son. 1-2-sinflar kesimida nechta? qancha? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsaning sanog'ini, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsaning tartibini bildiradi deb o'rgatiladi.

3-sinfda son o'quvchilarga turkum sifatida tanishtiriladi, ya'ni narsa, predmetning miqdorini bildirib otga bog'lanib ifodalanishini o'rganadi.

4-sinfda sonning turlari, sanoq va tartib sonlarni tartib sonlarning rim, arab raqamlari bilan qolaversa, harflar bilan ifodalanishini ham o'rganadi.

Fe'l. Boshlang'ich ta'lim tizimida 1-sinfda fe'l so'z turkumining leksik-grammatik ma'nosi, ya'ni o'quvchilar predmetning harakatni bildirishini, qanday so'roqqa javob bo'lishini, shuningdek, rasmlar asosida matn tuzish orqali ham o'rganib borishadi.

2-sinfda fe'l so'z turkumi deb tanishtiriladi. Ish-harakatlar misolida o'quvchilar fe'lni tez va oson anglaydi.

3-sinfda dasturga muvofiq o'quvchilarga fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari va ularning qanday farqlanishini o'rganishadi.

4-sinfda esa o'quvchilarga fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini, zamon tushunchasini ishlatilishini o'rganadi hamda shu xususiyatlari orqali fe'l bo'yicha bilimlari mustahkamlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda morfologik tushunchalarning o'qitilishi o'quvchilarda ta'limning dastlabki bosqichidanoq morfologik tushunchalarni, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda nutqiy faoliyatda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda morfologik tushunchalarni boshlang'ich ta'lim sohasida rivojlantirish uchun innovatsion metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Shunda o'quvchilar morfologiyaga oid qoidalarni faqat yodlab emas, balki amaliy nutqda vaziyatga moslab to'g'ri foydalanishni ham o'rganadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda til va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni. - 20.10.2020-y.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "Noshir" – 2009, 352-bet.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" - T.: "Innovatsiya-Ziyo" – 2020, 533-bet.
4. Nusratova, K. (2025). THE ROLE OF INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY SCHOOLS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 350-352.
5. H.Nusratova. Boshlang'ich sinf O'qish savodxonligi kitobidagi ilmiy ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2023/12 son. – B.150-154.
- 6.H.Nusratova. BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING O'RNI. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.213-216.
- 7.H.Nusratova. BOLALIKKA OSHUFTA QALB EGASI... "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.84-86.
- 8.H.Nusratova. O'zbek bolalar adabiyoti tadrijida qissa janrining o'rni (S.Barnoyev asarlari misolida). Education human life ilmiy jurnal 2023/1-son. – B.8-18.